| Ўзбекистон Республикаси<br>Соғликни Саклаш Вазирлиги<br>Фарғона вилояти Қува тумани<br>Санитария эпидемиологик<br>Осойиштаалик ва Жамоат<br>Саломатлиги бўлими | O'zbekiston Respublikasi<br>Sog'liqni SaqlashVazirligi<br>Farg'ona viloyati Quva<br>tumani Sanitariya-<br>i |
|---|---|

| 7«9»2022 yil. | 70-11-156-SES/2022-son |
|---|---|

# MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

Quva tuman Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik Markazi bundan buyon bir tomondan **"Haridor"** deb yuritiladi, Nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan **"Go'zal ishonch mebel"** xususiy korxonasi Nizomi asosida ish yurituvchi raxbari A.Qo'chqorov bundan buyon **"Sotuvchi"** deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. **"Sotuvchi"** o'zida ishlab chiqarilgan maxsulot yoki tovarni sotish, **"Haridor"** esa qabul qilib olingan maxsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

1.2. **"Sotuvchi" "Haridor"**ga quyidagi miqdor va assortimentda tovar yetkazib beradi.

| № | Tovar (maxsulotlar)nomi | O'lchov birligi | Soni | Narxi | Summasi | KKS 15% | Etkazib berish KKS bilan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Stul na metallicheskom karkase** | Dona | 20 | 347 826,09 | 6956521,80 | 1043478,20 | 8 000 000=00 |
| | **Jami;** | | | 347 826,09 | 6956521,80 | 1043478,20 | 8 000 000=00 |

1.3. Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi **8 000 000** ( sakkiz million ) so'mni tashkil etadi.

## 2. HISOB-KITOB QILISh TARTIBI.

2.1. **"Haridor"** tovar uchun oldindan, yetkazib berilayotgan tovar, maxsulot (ko'rsatilgan xizmat)ning 30 foizi miqdorida pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

2.2. Qolgan 70 foiz **"Haridor"** maxsulotni to'liq qabul qilib olgandan so'ng 10 bank ish kuni ichida hisob fakturaga asosan to'lab beradi.

2.3. To'lov shakli naqd pulsiz pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. TOVAR YeTKAZIB BERISh MUDDATI.

3.1. **"Sotuvchi"** mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 90 kun muddat ichida **"Haridor"**ning taqsimotiga asosan joylarga yetkazib berishi shart.

## 4. TOVAR SIFATI.

4.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki maxsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertifikati), ishlab chiqarish me'yoriy hujjatlar va **"Haridor"**ning talablariga mos kelishi shart.

## 5. TOMONLARNING MAJBURIYaTLARI.

5.1. **"Sotuvchi"** majburiyatlari:
- shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida **"Haridor"**ga tovarni yetkazib berish;
- shartnomaning shartlari **"Haridor"** tomonidan buzilganda berilgan maxsulotni qaytarib olib qo'yish xuquqiga ega;
- tegishli darajada sifatli maxsulot yubormaganligi to'g'risida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning ikkinchi bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish.
- **"Sotuvchi"** yetkazib bergan maxsulotlarini hisob-varaqda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarini rasmiylashtirish lozim.

5.2. **"Haridor"**ning majburiyatlari:
- **"Haridor"** shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida maxsulotni qabul qilib olishi lozim.
- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqda 3 kun ichida **"Sotuvchi"**ni ogohlantirish;
- to'liq rasmiylashtirilmagan hamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. **"Sotuvchi"** tomondan **"Haridor"**ga tovar va maxsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 0,5 % miqdorida **"Haridor"**ga penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdorni yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan, belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu maxsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashga sabab bo'ladi.

6.4. **"Haridor"** tomonidan qabul qilib olingan tovar boyliklarni summasini o'z vaqtida to'lamagan xolda ayibdor tomon ushbu maxsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashga sabab bo'ladi.

6.5. **"Haridor"** tomonidan olingan tovar yoki maxsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida **"Sotuvchi"**ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan oshmasligi kerak.

## 7. FORS – MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra va yengib bo‘lmas kuch mavjud bo‘lgan taqdirda ushbushartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlarga: suv toshqini, yong‘in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy harakatlar, davlat organlarining aktlari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday xolatlar tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to‘g‘risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo‘lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo‘shimcha ijro muddatlarinibelgilashlari mumkin.

## 8. ShARTNOMANI O‘ZGARTIRISh VA BEKOR QILISh TARTIBI.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o‘zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo‘lgan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O‘zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar xo‘jalik sudi orqali O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuviga asosan yoki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to‘lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «___» ______dan 2022 yil «31» dekabrgacha tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, tuman Yuridik Markaz bulimidan xulosa olinib, g‘aznachilik boshqarmasi (bo‘limi)da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

| "Sotib oluvchi" | «Ishlab chiqaruvchi» |
|---|---|
| **Quva tuman Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik Markazi**<br>**Manzil: Farg‘ona viloyati, Quva shaxar, A.Yassaviy ko‘chasi**<br><br>**Tel: 8-373-315-12-36**<br>**L/S: 23-426-000-800-464-713-001**<br><br>**ShXR: 400322860302187074110054002**<br><br>**INN: 200171939** | **Etkazib beruvchi: "Go'zal ishonch mebel" xususiy korxonasi**<br>**Manzil:Fargona v Kuva t Taxtakuprik 65uy**<br>**Tel:+(99890) 580-63-13**<br>**Xisob rakami: X/R: 20208000600294589001**<br>**Bank nomi: Kuva DT Xalk banki**<br>**MFO: 00799 INN: 302886296**<br>**OKONX: 15271** |
| Rahbar ________ A.Parpiev.<br>(imzo) | Rahbar ________ A.Qo`chkorov.<br>(imzo) |
| M.O‘. | M.O‘. |

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

| | |
|---|---|
| Imzolovchi F.I.SH. | AKMALJON PARPIYEV IMINJONOVICH |
| Imzolangan sana | 7 сен 2022 12:02 |
| Hujjat kodi | **LM2250332802** |
| Hulosa kodi | **UX8721358026** |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

PT4776525527

1. **Loyihaning turi: SHARTNOMA.**

2. **Loyihaning nomi Mahsulot etkazib berish shartnomasi** to‘g‘risida.

3. **Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Quva tumani **SES va JSB** hamda **“GO’ZAL ISHONCH MEBEL” XUSUSIY KORXONASI** tomonidan ishlab chiqililib 2022-yil 07-sentyabr kuni **“E-Huquqshunos”** dasturga kiritilgan va 2022-yil 07-sentyabr kuni Quva tuman yuridik hizmat ko’rsatish markazi tomonidan xulosa dasturga kiritilgan.

**4. Loyiha:**

Loyiha amaldagi qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga;
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy-protsessual kodeksiga;
3. O‘zbekiston Respublikasi **“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”**gi Qonunining talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra

**XULOSA:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **N.Lutgullayeva**

Юрист исм фамилияси: LUTFULLAYEVA NILUFAR ANVARJONOVNA

“TASDIQLAYMAN”

**Quva tumani SEO va JSB**

**boshlig‘i**

_______ **A Parpiev**

«28» сентябр 2022 yil  Quva tumani

Quva tumani Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bulimida ma’muriyat va laboratoriyalarida sifatli ish yuritish maksadida yig‘ilish bayoni

**ЙИҒИЛИШ БАЁНИ № 15.**

**Qatnashdilar**

**Komissiya raisi :** O.Supiev

Komissiya a’zolari: S Abdiev

X Nasriddinov

N Sirojiddinov

X Uzaqova

**KUN TARTIBIDAGI MASALA:**

Kun tartibidagi masala yuzasidan Quva tumani Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan e’lon bo‘yicha Quva tumani Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi raxbari A Parpiev so‘z olib bulim va laboratoriya xodimlarni ish sharoitlarni yaxshilash maksadida ularni jixozzlar bilan ta’minlanishini inobatga olgan xolda sifatli va narxi borasida maxsulotlarini taklif etayotgan korxonalar bilan tanishtirib o‘tish bilan birga o‘z fikr muloxazalarini aytib o‘tdi.

Shuningdek Epidemiologiya monitaring bo‘limi boshlig‘i va Komissiya raisi O.Supiev so‘z olib, bulimlarda xodimlarga ish sharoitni yaxshilash maksadida xar bir xodimga stul bn ta’minlash kerakligini aytib o‘tib, maxsulotlarini taklif qilayotgan xususiy korxonasi bilan shartnoma tuzilishini larni maxsulotlarini sifat darajasiga qarab xarid kilishni bildirib o‘tdi.

**Shunga asosan yuqoridagilarni inobatga olib komissiya a’zolari qaror qiladi.**

1. Quva tumani Sanitariya epidemiologiya osoyishtalig va jamoat salomatligi bo‘limi komissiya a’zolari tomonidan muxokama kilinib, « Go`zal ishonch mebel xususiy korxonasi “tomonidan taklif kilingan maxsulotni sifati va narxi ma’qul deb topildi.

2. Quva tumani Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi komissiya a’zolari tomonidan tanlov « Go`zal ishonch mebel xususiy korxonasi talabiga mos tushgan ushbu tashkilot bilan shartnoma tuzish va yuridik markaz va g‘aznachilik bo‘limlari bilan kelishilgan xolda ishlarni amalga oshirish vazifasi bosh xisobchi G Yuldasheva ga yuklatilsin

**Komissiya raisi :** O.Supiev.

Komissiya a’zolari: S Abdiev.

X Nasriddinov.

N. Sirojiddinov.

X Uzaqova.

Yig‘ilish kotibi: X Djo‘raeva .